

**INNOVATSION MOLIYAVIY MEXANIZMLAR ORQALI TURIZM
XIZMATLARI SEKTORINING BARQAROR INVESTITSION
RIVOJLANISHINI TA'MINLASH: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA**

Nomozova Rayxon Rustamovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,

"Moliya va turizm" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: rayxonrustamovna@gmail.com

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasiga investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgan. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatga 6,6 million xorijiy turist tashrif buyurgan bo'lib, bu 2019-yilga nisbatan 98 foiz tiklanishni anglatadi. Prognozlarga ko'ra, 2028-yilga kelib bu ko'rsatkich 8,6 millionga yetadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyati bu oqimning o'rtacha 3 foizini tashkil etib, har yili 200 mingdan ortiq turistlarni qabul qilmoqda.

Turizm-moliya integratsiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Xususan, raqamli investitsiya platformalari, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), 'green finance' (yashil moliya), 'impact investing' (ijtimoiy ta'sirli investitsiyalar) kabi moliyaviy mexanizmlar turizm loyihalarining samaradorligini oshiradi.

Moliyaviy tahlil va prognozlash natijalari quyidagilarni ko'rsatmoqda:


1. Raqamli moliyaviy boshqaruv tizimini joriy etish orqali investitsion risklarni kamaytirish mumkin.
2. ESG tamoyillari asosidagi barqaror moliyalashtirish ekologik va ijtimoiy samaradorlikni oshiradi.
3. Investitsion oqimlarni prognozlash va tahlil qilish modeli turizm loyihalarini optimallashtirishga xizmat qiladi.
4. Hududiy moliyaviy integratsiya mexanizmi orqali turizm subyektlari va investorlar o'rtasida axborot almashinuvi kuchayadi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- Turizm sektorini moliyaviy boshqarishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zarur;
- Raqamli platformalar yordamida investorlar uchun ochiqlik va ishonchlilikni ta'minlash kerak;

- Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq, yashil va ijtimoiy ta'sirli investitsiya loyihalariga ustuvorlik berilishi lozim.

Quyidagi rasmda O'zbekistonning 2017–2028-yillardagi xalqaro turistlar soni dinamikasi va Surxondaryo viloyati bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari keltirilgan (manba: UNWTO, TurStat, muallif hisob-kitoblari).



O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasida innovatsion moliyaviy mexanizmlarni joriy etish nafaqat hududiy investitsion jozibadorlikni oshiradi, balki umumiy iqtisodiy o'sish, bandlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Surxondaryo viloyati misolida raqamli moliya va davlat-xususiy sheriklik asosida yangi turizm loyihalarini amalga oshirish katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNWTO Tourism Highlights 2024 Edition, World Tourism Organization, Madrid.
2. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari (2024).
3. TurStat Central Asia Regional Tourism Report (2024).
4. PF-158-son Farmon, 'O'zbekiston - 2030' strategiyasi, 2023-yil 11-sentyabr.
5. Muallif hisob-kitoblari va prognozlari (2025).